

# **“YASHIL” IQTISODIYOTGA O‘TISH VA UGLEROD NEYTRALLIGIGA ERISHISH MUAMMOLARI**

## **FARG‘ONA VODIYSIDA TARQALGAN SCUTELLARIA TURKUMI DORIVOR TURLARI MUHOFAZASI**

*Akbarova M.X.  
Farg‘ona davlat universiteti*

Bugungi kunda aholi sonining o‘shishi, insoniyatning texnik va energetik darajasining oshishi, globallasuv jarayoni ekotizimlarga o‘zining salbiy ta‘sirini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, o‘simlik resurslaridan nooqilona foydalanish biologik xilma-xillikka, landshaftlar va biogeotsenozlarni tabiiy holatiga jiddiy zarar yetkazib, alohida o‘simlikni tabiatdan tur sifatida butunlay yo‘qolib ketishiga olib kelmoqda. Shunga ko‘ra, bioxilma-xillikni o‘rganish, mahalliy va milliy floralar ro‘yxatini shakllantirish, floralar va ular tarkibidagi kamayib borayotgan turlarni zamonaviy holatini baholash, saqlab qolish va himoya qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda Farg‘ona vodiysida olib borilayotgan botanik izlanishlarda hududadagi ayrim turlarning populyatsiyasi tarkibida o‘zgarishlar ro‘y berayotgani keltirilgan. Bularning ayrimlari antropogen omilining ta‘siri ostida, xususan yer maydonlarning o‘zlashtirilishi, chorva mollarning ko‘p boqilishi va mahalliy aholi tomonidan tartibsiz yig‘ib olinishi natijasida bo‘lsa, ayrim turlar noqulay ekologik muhitlar, jarliklarning paydo bo‘lishi, soylarning qirg‘oqlarida va qoyalarinng yoriqlarida o‘sayotganligiga to‘g‘ri keladi.

Farg‘ona vodiysida aholi sonining ortishi natijasida, tabiiy yer maydonlari tobora kamayib bormoqda, bu esa bevosita biologik xilma-xillikka o‘z ta‘siri ko‘rsatmasdan qo‘ymaydi.

Shunday ekan, 2017-2023 yillarda Farg‘ona vodiysida olib borilgan dala tadqiqotlarida aniqlangan *Scutellaria* turkumining 15 turdan faqatgina 2 tur *Scutellaria comosa* va *Scutellaria adenostegia* turlarining tabiiy zaxiralari xatlovdan o‘tkazilgan. Chunki, mazkur ikki turning tabiiy zaxirasi boshqa turlarga nisbatan kengroq tarqalganligi ma‘lum bo‘ldi. Olib borilgan tadqiqotlarmiz davomida mazkur turlarning ishlab chiqarish uchun biologik, eksplutatsion va yillik yig‘ish imkoniyat hajmlari baholanib hisoblab chiqilgan va asoslangan holda ularning tarqalish xaritalari yaratilgan. Umumiy olinganda bu turlarni muhofaza qilish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

Farg‘ona vodiysidagi tur tarqalgan (quyi tog‘ va adir) maydonlarda tabiiy holda boqiladigan chorva mollarini nazoratga olish yoki boqish jarayonini davriylashtirish;

Qo‘riqlanadigan tabiiy hududlar maydonini kengaytirish va aholi orasida o‘zlashtiriltirilgan yerlarda daraxtzorlar tashkil qilish jarayonida turning individlarini yo‘qotmaslik borasida takliflar ko‘lamini kengaytirish;

Farg‘ona vodiysidagi tur tarqalgan maydonlarda o‘zlashtirilgan yer egalariга turni yangi dorivor o‘simlik ekanligi tushuntirish va plantatsiyalar tashkil qilish borasida amaliy tavsiyalar berish;

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi huzuridagi Bioxilmaxillik va muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi hamda davlat o‘rmon xo‘jaligi xodimlari tomonidan o‘simlikning gullash davrida mahalliy aholi tomonidan ommaviy ravishda yig‘ilishida qat‘iy nazorat o‘rnatishga ko‘maklashish;

Yuqorida keltirilgan ishlarni amalga oshirish orqali, yurtimizda biologik xilma-xillikni saqlash, dorivor o‘simliklardan samarali foydalanish, ularni kelajak avlodga qoldirish, tabiiy zaxiralarini saqlab qolish uchun xizmat qiladigan mexanizm yuzaga keladi.

Farg‘ona vodiysi florasida tarqalgan *Scutellaria* L. turkumi turlarining kamyob va muhofazaga muhtoj turlarni himoya qilish, tabiatdagi tabiiy populyasiyalarini saqlab qolish hamda qayta tiklash uchun aniq bir maqsadga qaratilgan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilishi muhim

vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur vazifani bajarishda quydagi aniq bir maqsadga qaratilgan chora-tadbirlar rejasi va ularning yo'l xaritasi ishlab chiqildi ( 1-jadval).

**1-jadval.**

**Farg'ona vodiysidagi *Scutellaria L.* turkumi turlarining himoyaga muhtoj, havf ostida turgan turlarini muhofaza qilish chora-tadbirlar rejasi**

<b>№</b>	<b>Muhofaza qilish chora-tadbirlar rejasi</b>
1	Kamyob, endem va populyasiyalarining maydonlari keskin qisqarib borayotgan turlarni O'zbekiston Qizil kitobiga, Xalqaro Qizil kitobga kiritish
2	Vodiydagi turkum turlari keng tarqalgan ayrim kichik maydonlarda bo'lsa ham muhofaza etiladigan hududlarni tashkil qilish
3	Milliy va mintaqa florasida tarqalgan kamyob va endem turlar bilan bir qatorda potensial tahdid ostida bo'lgan <i>Scutellaria</i> turkum turlarining "Urug'lik banklari"ni tashkil etish
4	Alohida ahamiyatga ega bo'lgan hududlarni tashkil etish
5	<i>In-situ &amp; ex-situ</i> sharoitida muhofaza qilish
6	Tabiatda yo'qolib ketish xavfi ostida turgan yoki jiddiy xavf ostida bo'lgan turlarning populyasiyalarini qidirib topishga qaratilgan monitoring tadqiqotlar o'tkazish
7	Tabiatni muhofaza qilish va ilmiy tadqiqot dasturlarini ishlab chiqishda mintaqadagi mutaxassislarning yaqin xamkorligini rivojlantirish
8	Farg'ona vodiysining shimoliy va janubiy hududlarida o'rmon xo'jaliklarini tashkil etish
9	Tabiiy landshaftlari kam bo'lgan Farg'ona vodiysi tabiatini muhofaza qilishga qaratilgan mintaqaviy miqiyosda qo'shni davlatlar o'rtasida xalqaro hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish

Turkumning kamyob turlarni *ex-situ* sharoitida saqlab qolish uchun 2020-yil amalga oshirilgan dala tadqiqotlari davomida 4 turning 20 ga yaqin namunalari olib kelinib ekildi.

Endem turlar tabiatni muhofaza qilishning yuqori ustuvorligiga ega, chunki ular geografik jihatdan cheklangan va cheklangan hududlarga xosdir. Ko'pincha ekologik jihatdan kamdan-kam uchraydigan har qanday noqulay o'zgarish ularning tezda yo'q bo'lib ketishiga olib kelishi mumkin. Global bioxilma-xillikning yo'q bo'lib ketish inqirozi natijasida o'simliklarning yo'q bo'lib ketishini hisobga olgan holda ularni saqlab qolish va ko'paytirish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ogohlantirishlarni biologik xilma-xillik kam ma'lum bo'lgan hududlarda ko'proq o'rganish va mumkin bo'lgan yo'q bo'lib ketish va qayta kashf qilish o'rtasidagi ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va vaqtinchalik munosabatlarni tushunishimizni chuqurlashtirish orqali yengillashtirish mumkin.

***MELISSA OFFICINALIS* NING SHIFOBAXSHLIK XUSUSIYATLARI VA INSON SALOMATLIGINI SAQLASHDAGI ROLI**

*Axmadjonova Muxlisaxon Anvarjon qizi*  
[muxlisaxonaxmadjonova@gmail.com](mailto:muxlisaxonaxmadjonova@gmail.com)  
*Farg'ona Davlat Universiteti*

**Annotatsiya.** Bugungi kunda xalq tabobati juda boy va katta tajriba va bilimlar bilan boyitilgan. Bu ilmiy (rasmiiy) tibbiyotni yangi, samarali dorivor preparatlar bilan boyitib turuvchi bitmas-tuganmas manbadir. Bu sohada xalq tabobatining qadri va o'rni beqiyos. Shu bilan birga, hozirgi zamon tabobatida qo'llanilayotgan dorivor o'simliklarning aksariyati xalq tabobati xazinasidan olingani yoki ilmiy tabobatning o'zi xalq tabobati negizida rivojlanib borayotgani, xalq tabobatida qo'llanilayotgan dorivor o'simliklarning ko'pchiligi xalq tabobati xazinasidan